

## **Samarqand shahridagi 10-son mehribonlik uyida xayriya konserti bo‘lib o‘tdi.**



Unda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Erkin Qaytarov, Samarqandning taniqli san'atkorlar hamda yozuvchi va shoirlar ishtirok etdi.

Tadbirda san'atkorlarning diltortar qo‘shiqlari va ijodkorlarning ko‘ngilga yaqin she‘rlari bolajonlarga xush kayfiyat ulashdi. Shuningdek, yoshlar o‘rtasida qiziqarli intellektual o‘yinlari tashkil etildi.

Tadbirda tashkitlotchilar mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga kitoblar va esdalik sovg‘alari topshirdi.

Shunday tadbir Samarqand san'at kollejida ham o‘tkazildi.